



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№1

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@inbox.uz

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

Ғолиб Султонмуродович Мустафоев Қишлоқ жойларда хизмат кўрсатиш соҳасининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш	80
Marifat Umarovna Xudoyberdiyeva Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati	85
Askar Axrorovich Siddikov, Ahmadbek Nizomiddinovich Najmiddinov Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsion faoliyatni takomillashtirish yo‘nalishlari	87
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Muslimaxon Xolmatjon qizi Soxibova O‘zbekistonda ziyorat turizmi resurslarini samarali boshqarishning nazariy asoslari	90
Murodjon Rajabbayevich Matniyozov Methodological bases of formation of tourism image of the Khiva destination	96
Kamol Sharifovich Yuldashev Mustaqil turizm rivojlanishining evolyutsiyasi	100
Ўткир Дўснаевич Ражабов Ўзбекистонда диний туризм ривожланишининг салоҳияти ва истиқболлари	106
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Gulnora Mardiyevna Shadiyeva Ra‘no Akbar qizi Qulmurodova Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik – aholi turmush darajasini oshirishning bir omili sifatida	110
Saodat Toxirovna Toshaliyeva Mamlakatimizda kichik tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish holati tahlili	114
Имомназар Эгамбердиевич Турсунов, Кермен Антоновна Наминова, Тулкин Саидахмедович Шарипов Развитие малого и среднего бизнеса в условиях цифровой экономики	118
Гулнора Мардиевна Шодиева, Дилноза Азаматовна Тоғаева Хизматлар кўрсатиш соҳасида оилавий корхоналарни ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш	123
Layli Baxtiyorovna Navruz-zoda Inson tadbirkorlik qobiliyatini baholash maqsadida uning sifat xususiyatlarini tasniflash	130
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Navruzbek Zarifovich Niyatov Xizmat ko‘rsatish sohasida boshqaruv samaradorligini oshirish	134
Shahlo Akramovna Maripova Modern digital tools in small business management	138
Bekzodjon Oblakulov, Shakhnoza Narkulova Marketing Analysis of International Brand in the Case of Borjomi	143
Абдухолик Эгамович Тангиров Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида корхона бошқаруви ва уни ташкил этишининг моҳияти	147
Зулфия Мусаевна Усманова Перспективные направления совершенствования механизма управления персоналом	151
ИНВЕСТИЦИЯ	
Jahongir Ravshanbek o‘g‘li Hoshimov Yangi O‘zbekistonga xorijiy investitsiyalarni jalb etish holatining kompleks tahlili	155

holatiga 82,9 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ri keladi. Xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish borasida takliflar:

- Tuman markazlari va aholi yashaydigan yirik qishloqlarda xizmat ko‘rsatish markazlari tashkil etish;

- Xizmat ko‘rsatish subyektlariga kreditlar berishda hamda soliqlar to‘lashda turli imtiyozlar berish;

- Xizmat ko‘rsatish turlari juda ko‘p bo‘lib, ehtiyoj va xizmatlarga talabning oshib borishini inobatga olib, yoshlarni xizmat ko‘rsatuvchi kasblarga o‘rgatishni ko‘paytirish. Buning uchun joylarda qisqa muddatli mutaxassislar (oshpaz, sartaroshlar, poyabzal ta‘mirlovchilar, ma‘ishiy texnikani ta‘mirlovchilar, avtomobillarni ta‘mirlovchilar va shu kabilar) tayyorlashni tashkil etish;

- Qishloq joylarda aloqa va internet xizmatlarini ko‘paytirish va sifatini yaxshilash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi “Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori.
3. Pardayev M.K. va boshqalar. Xizmatlar sohasi iqtisodiyoti. T.: “Iqtisod-moliya” 2014-yil.
4. Xudayberdiyev U.X., Xoliqulov A.N. Xizmat ko‘rsatish sohasi: rivojlanishi va muammolari. Monografiya. Samarqand, SamISI bosmaxonasi, 2020-yil. 124-bet.
5. vvv. stat.uz.

<p style="text-align: center;">М.Худойбердиева Значение малого бизнеса и частного предпринимательства в развитии сферы услуг</p>	<p style="text-align: center;">M.Khudoyberdieva The importance of small business and private entrepreneurship in the development of the service field</p>
<p>Аннотация: в статье описаны сущность и значение сферы услуг, ее виды, развитие и роль в ней малого бизнеса.</p> <p>Ключевые слова: услуги, валовой внутренний продукт, виды услуг, планирование, транспорт, торговля, финансы, связь, предмет, объем услуг.</p>	<p>Abstract: the article describes the nature and importance of the service sector, its types, development and the role of small business in it.</p> <p>Keywords: services, gross domestic product, types of services, planning, transport, trade, finance, communication, subject, volume of services.</p>

Askar Axrorovich Siddikov – SamISI, “Menejment” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Ahmadbek Nizomiddinovich Najmiddinov – SamISI talabasi

XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Annotatsiya: Maqolada xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatni vujudga keltirish va amalga oshirish, sohada kadrlar salohiyatini oshirish va tubdan yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali raqobatbardoshlikni oshirib, iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy rivojlanishning yuqori sur‘atlarini ta‘minlash imkoniyatlari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: innovatsiyalar, innovatsion jarayon, innovatsion samaradorlik, rivojlanish konsepsiyasi, iqtisodiy integratsiya, ijtimoiy ehtiyoj, rentabellik.

Kirish. Jamiyat tarixiy taraqqiyotining hozirgi bosqichi uchun ishlab chiqarishning konsentratsiyasi, resurslar uchun raqobatning kuchayishi, axborot va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi, jamiyat hayotining barcha sohalarining globallasuvi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, iqtisodiy globallasuvning uchta asosiy ko‘rinishini ajratib ko‘rsatish mumkin: iqtisodiy integratsiya darajasining oshishi, xalqaro savdo va investitsiyalarning intensiv rivojlanishi, bozorlarning yaqinlashishi yoki integratsiyasi. Bunday sharoitda global raqobatning rivojlanishi fan yutuqlarini joriy etish vaqtini qisqartirishni, ulardan mahsulot va xizmatlarda foydalanish darajasini oshirishni, innovatsiyalarni joriy etish va tarqatishni talab qiladi.

Y.Shumpeter “Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi” asarida innovatsion jarayon natijasidagi o‘zgarishlarni besh yo‘nalishga ajratib ko‘rsatib bergan. Bu yo‘nalishlar quyidagilardan iboratdir:

- yangi texnik va texnologik o‘zgarishlar yoki ishlab chiqarish jarayonini yangi bozor talablari asosida tashkil etish;

- yangi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan mahsulot turlarini deversifikatsiyalash;

- ishlab chiqarish jarayonlarida yangi xom-ashyolardan foydalanish;

- ishlab chiqarishni tashkil etishda innovatsion boshqaruv usullaridan foydalanish;

- yangi iste‘mol bozorlarini shakllantirish¹.

Innovatsiya asosida shubhasiz innovatsion faoliyat vujudga keladi. Innovatsion faoliyat ishlab chiqarish va inson hayotiy faoliyatining boshqa sohalari ehtiyojlarini qondirishning muhim uslublaridan biri hisoblanadi. U foydalaniladigan mahsulotlarning sifat o‘zgarishlari, faoliyat vositalari va uslublarini yangilash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Ammo sifat o‘zgarishlari faqatgina fundamental bilimlar asosida o‘zgartirish mumkin bo‘lib, ular texnik bosqichdan ishlab chiqarish sohasiga o‘tgan holda, unda progressiv o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Ushbu sohadagi tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, sanoati rivojlangan mamlakatlarda innovatsion faoliyat mahsulotlarini sotish hisobiga milliy daromadning 20% gacha o‘shirishini ta‘minlashi mumkin².

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Innovatsion faoliyatning nazariy uslubiy asoslari iqtisodchi olimlar tomonidan atroflicha o‘rganilgan bo‘lib ular tomonidan turli xil fikrlar bildirilgan.

Innovatsiya nazariyasini ishlab chiqishda texnologik bosqichlarning evolyutsiyasi bilan bog‘liq muammolarni birinchi marta rus olimi N.D.Kondratev o‘zining “Uzun to‘lqinlar nazariyasi” asarida o‘z izlanishlari natijasida olingan fikrlarini bildirgan.

J.Brayt esa “innovatsiya jarayoni ilm va texnika, tadbirkorlik va boshqaruvni o‘zida birlashtiruvchi innovatsiyalarning tijoratlashuviga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir” degan g‘oyalarni ilgari surgan. Uning fikricha - innovatsiya jarayoni g‘oya paydo bo‘lishidan boshlab, tijorat asosida hayotga tatbiq etish jarayonigacha bo‘lgan barcha bosqichni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Korxonaning innovatsion faoliyatni amalga uchun ham, uni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash uchun muhim bo‘lgan uslubiyotni tadqiq etish lozim. Maqolada bilishning umumiy ilmiy usullari tizimlilik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil, dialektik uslublaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish mezoni milliy iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish modelini shakllantirish bo‘lib, u xizmat ko‘rsatish sohasining ustunligini ta‘minlaydi. So‘nggi o‘n yilliklarda ko‘plab xizmat ko‘rsatish korxonalari innovatsion iqtisodiyotga jadal integratsiyalashmoqda. Xizmat ko‘rsatish sohasidagi innovatsion faoliyat natijasida ijtimoiy ehtiyojlarni yanada samarali qondirishga qodir bo‘lgan xizmat mahsuloti, texnologiya yoki uning alohida elementlari tashkil topmoqda.

“Bilimlar iqtisodiyoti” sharoitida innovatsion jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchi nafaqat bozor mexanizmlari, balki maqsadli davlat siyosati hamdir va shuning uchun davlat innovatsion tizimning barcha elementlarini shakllantirishda faol ishtirok etadi. Xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy etish ishlab chiqarish sohasidagi innovatsiyalarni yaratish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bular:

- ilm-fanni rivojlantirishga sarmoya kirituvchi va innovatsiyalardan keng foydalanayotgan xususiy sektor uchun imtiyozlar va preferensiyalar joriy etish orqali ilmiy-texnikaviy taraqqiyot va innovatsion jarayonga ko‘makni kengaytirish.

- innovatsiyalarni amalga oshiruvchi subyektlari o‘rtasidagi hamkorlikni rag‘batlantirish, sheriklik munosabatlarini shakllantirishga ko‘maklashish.

- ilmiy-texnikaviy soha va innovatsiyalarni samarali rivojlantirish uchun institutsional shart-sharoitlar va kafolatlarni ishlab chiqish.

- innovatsion faoliyat sohasini davlatning milliy xavfsizligini ta‘minlashning asosiy ustuvor yo‘nalishlari tizimiga kiritish lozim.

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi innovatsiyalarga zamonaviy yondashuv yangilanish va doimiy takomillashtirish jarayoniga qaratiladi. Mijoz mavhum xizmat uchun emas, balki uni

¹ Шумпетер Й. Теория экономического развития. М 1982 год 388 стр

² Y.E.Aliyev. Innovatsion iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019 yil, 7 bet.

taqdim etishning o‘ziga xos jarayoni uchun pul to‘laydi. Bu jarayonlar ijrochi mijozning imkoniyati va zaruriyatidan kelib chiqib, xizmat ko‘rsatishga tayyor bo‘lgan vaqtiga mos bo‘lishi lozim. Korxonaning omon qolishi va uning gullab-yashnashi uchun korxonada innovatsion strategiyani ishlab chiqishi kerak.

Xizmat ko‘rsatish sohasidagi innovatsion jarayonning asosiy bosqichlari:

- g‘oyalarni shakllantirish;
- eng yaxshi innovatsion g‘oyalarni baholash va saralash;
- loyihalash va marketing faoliyati orqali yangi xizmatlarni bozorga olib chiqishdan tashkil topgan.

Innovatsion korxonalar faoliyatida vertikal rivojlanish konsepsiyasiga asosan mijozlarga yo‘naltirilgan xizmat ko‘rsatish falsafasi rivojlanmoqda. Shu bilan birga innovatsion jarayon samarali marketingga ham bog‘liq. Xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar uchun marketing ham falsafa, ham texnologiyadir. Innovatsiyalar samaradorligining muhim sharti innovatsion xizmatni joylashtirishdir. Marketing omillaridan tashqari, korxonada boshqaruvining sifati va yo‘nalishi katta ahamiyatga ega. Shunday qilib, korxonada innovatsion faoliyatining muhim jihatlari:

- innovatsion xizmatlar provayderi sifatida ijtimoiy guruhning mavjudligi;
- vertikal emas, balki gorizontallik shakliga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan tashkiliy tuzilma;
- xodimlarni rag‘batlantirish, o‘qitish va muloqotni o‘z ichiga olgan xizmat ko‘rsatish madaniyatini yaratish.

Xulosa va takliflar. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsiyalar samaradorlikni ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib quyidagi **xulosaga** keldik:

1. Xizmat ko‘rsatish korxonalarida shakllangan yangiliklarni tezda mualliflik huquqini kafolatlash.

2. Korxonalardan innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun doimiy ravishda harakatda bo‘lishi izlanishi talab etadi.

3. Innovatsion konsepsiya - korxonaning rentabelligini oshirish, bozordagi ulushini kengaytirish va imidjini yaxshilashga imkon beradi.

1. Yangi g‘oyalar tug‘ilishi va innovatsiyalarni xizmat ko‘rsatish jarayoniga maksimal darajada tatbiq etish imkonini beradigan ichki korporativ infratuzilmani yaratish.

2. Xizmat ko‘rsatish korxonalariga innovatsiyalar biznesning bir necha darajalarida - texnologik innovatsiyalardan tortib to marketinggacha tatbiq etilishiga erishish.

3. Xizmat ko‘rsatish jarayoniga innovatsiyalarni joriy etishning texnologik imkoniyatlarini real baholash mezonlarini yanada takomillashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shumpeter Y. Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi. - Moskva, 1982-yil 388 bet.
2. Sengupta J. Theory of Innovation, A New Paradigm of Growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.154.
3. Goncharenko L.P, Arutyunov YU.A. Innovatsionnaya politika. Uchebnik. – M.: 2009. – 352 str.
4. Christine G. Mark R. Innovation, intellectual property, and economic growth, 2014 by Pearson Education, Inc.p.385.
5. Atkinson, Robert D. Innovation economics : the race for global advantage Robert D. Atkinson and Stephen J. Ezell. USA: Yale University Press, 2012.
6. Aliyev Y.E. Innovatsion iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2019-yil, 236 bet.

<p>А.Сиддиков, А.Нажмиддинов Направления совершенствования инновационной деятельности на предприятиях сферы услуг</p> <p>Аннотация: в статье описаны возможности создания и реализации инновационной деятельности в сфере услуг, повышения потенциала кадров в сфере, повышения конкурентоспособности и обеспечения высоких темпов экономического роста и социального развития за счет использования принципиально новых технологий.</p> <p>Ключевые слова: инновации, инновационный процесс, эффективность инноваций, концепция развития, экономическая интеграция, социальная потребность, рентабельность.</p>	<p>A. Siddikov, A. Najmiddinov Directions for improving innovative activity in service enterprises</p> <p>Abstract: the article describes the possibilities of creating and implementing innovative activities in the field of services, increasing the capacity of personnel in the field, increasing competitiveness and ensuring high rates of economic growth and social development through the use of radically new technologies.</p> <p>Keywords: innovation, innovation process, innovation efficiency, development concept, economic integration, social need, profitability</p>
---	--

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

06.03.2024 йилда теришга берилди. 29.03.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0024А/30.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.